

# PEDAGOGIK MAHORAT

**MS**  
**2022**



# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**Maxsus son**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2022**

## PEDAGOGIK MAHORAT

### Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2022, Maxsus son

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruviy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

#### Muassis: Buxoro davlat universiteti

**Tahririyat manzili:** O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy  
Elektron manzil: ped\_mahorat@umail.uz

#### TAHRIR HAY’ATI:

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o‘rinbosari:** Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas’ul kotib:** Hamroyev Aljon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Otobek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

*To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent*

*Hayitov Shodmon, tarix fanlari doktori, professor*

*To‘rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor*

*Rajabov Qahramon, tarix fanlari doktori, professor*

*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Muhittinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Niyozmetova Roza Hasanova, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qurbanova Gulnoz Ne‘matovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

## MUNDARIJA

Nodir YADGAROV. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda axborot texnologiyalarning o'rni .....	8
Sanjar AZIMOV. Tasviriy san'atda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati .....	11
Dilshod MAMATOV. Muhandislik grafikasi fanini o'qitishning innovatsion usullari (kompyuter grafikasi asosida) .....	14
Tolib SOBIROV, Qavmuddin OMONOV. Muhandislik grafikasini o'qitishda me'morchilik obidalaridagi geometrik yasashlarning tarbiyaviy ahamiyati .....	18
Arif KADIROV, Mehriniso QAHHOROVA. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda milliy qadriyat va an'analarning o'rni .....	21
Shuhrat G'ULOMOV. Tarixiy janrda O'zbekiston tasviriy san'ati rivoji .....	24
Shodijon BAKAYEV, Sherozjon SHOKIROV. Badiiy bezash ishlarida ranglarni to'g'ri qo'llash tartibi va ularning emotsiyal ta'siri .....	27
Qoryog'di JUMAYEV. Kasb-hunar ta'limi va tarbiya berish jarayonida sharq rivoyatlaridan foydalanish metodlari .....	30
Muzafar AVLIYAKULOV. Tasviriy san'at o'qituvchisi tashkilotchi, metodist va ijodkor .....	32
Гульнора ХАКИМОВА. Традиционная одежда узбекских женщин.....	34
Viloyat TUXSANOVA. Kashtachilik san'ati .....	37
Muhayyo AZIMOVA. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati turlari va ularning o'ziga xos tomonlari .....	41
Sanjar AZIMOV, Maftuna SULAYMONOVA. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida tasviriy san'atning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish metodikasi ..	44
Shodijon BAKAYEV, J.B.NE'MATOV. Interyerni sharqona qirma uslubda bezatish texnologiyasi .....	47
Oybek SHOMURODOV. O'rta maktab tasviriy san'at fanida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ..	50
Aziza MUSINOVA. Amaliy bezak san'atida tasvir va kompozitsiyaning tutgan o'rni .....	54
Akmal AMINOV. Autocad grafik dasturida 3d o'lchamli obyekt nuqtalarining koordinatalarini kiritishning o'ziga xos usullari .....	57
Gulshod OSTONOVA. Tasviriy san'at darslarida borliqni idrok etish hamda o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini oshirish .....	61
Нозима КАДЫРОВА, Паризод РОЗИКОВА. Особенности национального платья жительниц Бухары в XIX веке как элемент изучения истории региона.....	64
Nigora IBATOVA. XIX-XX asr O'zbekiston rassomlari ijodida manzara janri .....	67
Shahnoza IBADULLAYEVA. "Manzara janrida ijod qilgan rassomlar asaridan nusxa ko'chirish" modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati.....	71
Avaz SHUKUROV, Nargiza ASLANOVA. Kulolchilik - xalq amaliy bezak san'atining bir turi sifatida....	76
Shodijon BAKAYEV, M.S.TO'RAYEVA, D. USMONOV. Amaliy san'atda ranglardan foydalanish va ularning o'ziga xos xususiyatlari .....	79
Nafisa AVLIYAKULOVA. Bo'lajak o'qituvchi shaxsiyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish .....	83
Sherali AVEZOV. Amaliy sanat tarixi va uning turlari .....	86
Muxiba SULAYMONOVA. Tasviriy san'atning shaxs ma'naviy kamolotida tutgan o'rni .....	89
Alisher SHIRINOV. Tasviriy san'atni o'qitishda borliqni idrok etish mashg'ulotlari .....	91
Sadoqat SHODIYEVA. Arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'atni qo'llanilishi .....	94
Nozima ASLANOVA. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning badiiy va axborotli matnlar mazmunini anglash va uni izohlash malakalarini rivojlantirish .....	97
Mohinur JALOLOVA. Diniy binolarda bezak san'ati .....	100
Maxbuba KARIMOVA. Xalq hunarmandchiligi darslarida amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarini o'rgatish metodikasi .....	103
Jo'rabeck YARASHEV, Maftunabonu AKRAMOVA. O'rta ta'lim maktablarda musiqaning muammo va yechimlari .....	106
Журабек ЯРАШЕВ, Нодира ШАДМАНОВА. Вопросы музыкальной гармонии в наследии просветителей IX-XII веков и их гуманистическое значение для культуры молодого поколения.....	108
Jo'rabeck YARASHEV, Maxfuza KAMBAROVA. Zamonaviy pedagogikada kreativlik tushunchasi .....	112
Maxfuza KAMBAROVA. Umumta'lim maktablarida musiqa darslarining nazariy asoslari .....	117
Jo'rabeck YARASHEV, Munisa RIZOYEVA. Musiqa madaniyati darslarida stilizatsiya uslubini turli usullarda qo'llashning mazmuni.....	120
Zarnigor ALAYEVA. Yoshlarni musiqa ta'limi orqali milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalash .....	122

Nargiza RAFIYEVA. O'zbek kitobot va miniatura san'ati .....	126
R.N.RAXIMOV, M.K.AKRAMOVA. Boshlang'icn sinf o'quvcnilarining vokal-xor malakalarini tarkib toptirish .....	129
Baxrom MADRIMOV. O'quvchilarni darsdan tashqari tadbirlar jarayonida axloqiy-estetik tarbiyalash ....	132
Sanoqul DO'STOV. Musiqani tinglab uni idrok etishning maqsadi va tarbiyaviy ahamiyati.....	135
Davron RO'ZIYEV. Konsert namoyishiga tayyorgarlik faoliyatি .....	139
Baxtiyor MUSTAFOYEV. Umumiy o'rta ta'lif tizimi islohotlarida musiqa madaniyati .....	143
To'xtasin RAJABOV. Musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati .....	146
Shoira NOROVA. Yosh avlodni musiqa san'ati orqali tarbiyalash yo'llari .....	149
Ilhom QO'SHAYEV. An'anaviy musiqiy merosni o'rganishni metodik takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'lif mazmuni .....	152
Ibrohim KAYUMOV. San'atning turlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati .....	154
Sadriddin GULOV. O'zbekiston maktablarida musiqa cholg'ulariga yo'naltirishning zamonaviy ilg'or innovatsiyalari .....	157
Halim HASANOV. Vatanga sadoqat hissini shakllantirishda fanlararo aloqadorlik (musiqa fani misolida)159	
Shavkatjon KAMOLOV, Husniddin HIKMATOV. Talabalarda mustaqil ta'lifni tashkil etish.....	161
Сайфулла АБДУЛЛАЕВ. Краткосрочные рисунки как средство формирования художественного воображения студентов в процессе рисования по памяти и представлению .....	163
To'lqinjon Muxamedov. Boshlangich sinf o'quvchilarida milliy madaniyatni tanishtirish orqali fuqarolik shaxsini shakllantirish .....	167
O'g'iloy RAMAZONOVA, Ferangiz Odilova. O'n ikki maqom tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari..	169
Malohat RAXMATOVA, Gulbahor ISTAMOVA. "Shashmaqom" nasr (ashula bo'limining ikkinchi guruh sho'balarini) o'rgatish yo'llari.....	171
Olimxo'ja KARIMOV, Rahim XODJAYEV. Musiqa to'garaklarida o'quvchilarni skripka cholg'u sozi bilan tanishtirish.....	173
Ma'rifat UMUROVA. Maktabgacha ta'lif muassasasida o'yin bola tarbiyasining muhim vositasi.....	176
Shohruh SHODIYEV. Qashqar rubobida xalq kuylarini notalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	181
Azamat Rajabov. Markaziy Osiyoda musiqa ilmiga asos solgan olim va mutafakkirlar ishlarining tahlili ..	186
Рустам АТАМУРАДОВ. Формирование умений и навыков по школьному репертуару учителей музыки в общеобразовательной школе .....	188
Sherzod SHAMSIYEV, Dilbar MO'SINOVA. Xor uchun yozilgan musiqa asarini tahlil qilish yo'llari....	191
Сухроб АБДУЛЛАЕВ. Формы организации научно – исследовательской и творческой деятельности студентов направления образования “Изобразительное искусство и инженерная графика” .....	193
Olimxo'ja KARIMOV, Gulmira QUTLIYEVA. O'quvchilarda vokal-xor malakalarini shakllantirish .....	195
Olimxo'ja KARIMOV, Sitorabonu SHARIPOVA. Qo'shiq va kuylar orqali komil inson shaxsini tarbiyalashning nazariy asoslari.....	198
Qobil QORIYEV. O'zbek musiqa san'atining qadimiy ildizlari tarixidan .....	200
Abror AZIMOV. Zardushtiyy va buddaviylar davri ommaviy musiqa va badiiy san'at tarixi va turlari .....	202
Said BOLTAZODA. Avesto davrining xorazm va sug'diyona musiqa maktablari madaniyatida ijrochilik uslublari.....	204
Davron RO'ZIYEV, Jamshid NIYOZOV. Maqomga ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarini shashmaqomning nasr bo'limi vositasida axloqiy estetik tarbiyalash .....	206
Sanoqul DO'STOV, Zilola RUZIYEVA. O'quvchilarning musiqiy tafakkurini shakllantirishda milliy dutor cholg'usining o'rni va tarbiyaviy ahamiyati .....	208
Mehrinisho Begmurodova. Maktabgacha ta'lif muasasalarida musiqa terapiya mashqlarining ahamiyati ...	210
Zafarbek YAQUBOV. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi ma'naviyatini rivojlantirishda Xorazm xalq dostonlarining o'rni .....	212
Umidbek BOLTAYEV. Milliy musiqiy meros-o'quvchilar estetik tarbiya vositasi .....	214
Uchqun BOLIYEV. Ma'naviy axloqiy tarbiyaga kompleks yondashish .....	217
Maqsuda AXMEDOVA. Musiqiy tasavvurlarni shakllantirishda pedagogika va psixologiya fanining muhim vazifalari .....	219
Adilshoda TO'YMURDOV. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o'quvchining ijodkorligi .....	222
Hafiza HAMIDOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini folklor qo'shiqlari vositasida tarbiyalashda alla qo'shig'ining ahamiyati.....	225
Mirshod XODJIYEV. Buxorcha va mavrigi turkumi haqida.....	228
Firangiz SHUKUROVA. Buxoro folklor qo'shiqlarining maktab darsliklaridagi o'rni .....	230
Shaxnoza YAXYOYEVA. Buxoro shashmaqomining yoshlari tarbiyasidagi ahamiyati .....	233

Shoira NOROVA

Buxoro davlat universiteti

san'atshunoslik fakulteti

musiqa ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi

E-mail: [s.u.norova@buxdu.uz](mailto:s.u.norova@buxdu.uz)

---

## YOSH AVLODNI MUSIQA SAN'ATI ORQALI TARBIYALASH YO'LLARI

---

*Maqolada yosh avlodni musiqa san'ati orqali tarbiyalash yo'llari va musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'yan madaniyati, keng dunyoqarashi, mohir ijrochi, musiqa san'atiga kasbiy qiziqishi ularning umumiy ta'rifi va tarixi bilan tanish bo'lishi kerakligi yoritildi.*

**Kalit so'zlar:** an'ana, munosabat, jarayon, majburiyat, idrok, olqishlar, ovutmachoqlar, erkalamalar, qiziqmachoqlar.

*В статье рассматриваются пути воспитания подрастающего поколения через музыкальное искусство и культуру учителя музыки, любящего свою профессию и детей, широкий кругозор, талантливого исполнителя, профессиональный интерес к музыкальному искусству и их общее определение и история.*

**Ключевые слова:** традиция, отношение, процесс, обязанность, восприятие, аплодисменты, ласки, любопытство.

*The article discusses the ways of educating the younger generation through the musical art and culture of a music teacher who loves his profession and children, a broad outlook, a talented performer, professional interest in musical art and their general definition. and history.*

**Key words:** tradition, attitude, process, obligation, perception, applause, caresses, curiosity.

**Kirish.** Musiqa tarbiyasi - insonning ruhiy olami, nozik his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari va ijtimoiy faoliyatini boshqarishda yosh avlodga shodlik va ilhom baxsh etib, ularning aqliy, axloqiy rivojlanishiga, badiiy va ma'naviy tarbiyasiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Ajodolarimiz asrlar davomida musiqaning qudratiga tahsinlar o'qiganlar. Ular o'z munosabatlarida, mehnat faoliyatlarida, hayotda undan bahramand bo'lganlar, ezgu niyatlarini amalga oshirganlar. Ayniqsa, kattalar hamisha o'z farzandlarini o'ylab yashaganlar, mehnat va ijod bilan shug'ullanganlar. Bu jarayon ularda bola va uning taqdiri to'g'risida qayg'urish majburiyatining tabora chuqurlashuvi tarzida kechib, talay qo'shiqlarning yaratilishiga sabab bo'lgan.

**Asosiy qism.** Chaqalojni parvarish etish mas'uliyati behad katta bo'lgan. Onalar ana shu murakkab ma'suliyatni o'z zimmalariga olganlar. Bu yo'lida qo'shiq ularga madadkor bo'lgan. Bolalarni qo'shiq bilan uxlatganlar, yig'lasa kuylab ovutganlar, erkaganlar, hatto qo'shiq bilan chaqaloqqqa dahldor rasmrusumlarni bajarganlar. Shu tariqa allalar, aytim-olqishlar, ovutmachoqlar, erkalamalar, qiziqmachoqlar yuzaga kelgan. Shuni ham aytish zarurki, allalar, aytim olqishlar, ovutmachoqlar, erkalamalar, qiziqmachoqlarning ijod etilishida barcha kattalar: otalar, buvilar, bobolar, amma-yu xolalar qatnashgan bo'lsalarda, baribir, onalar yetakchi o'rinda bo'lganlar. Shu bois, musiqa bolalarga faol emotsiyonal ta'sir ko'rsatib, ularning ruhiyatini va fiziologiyasini o'zgartira oladi. Chunki musiqa hayotni va kelajakni aks ettiradi. Inson musiqani ona allasi orqali idrok etib, umrbod musiqadan zavq oladi va madad topadi.

Milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz qatorida ko'p asrlik musiqiy merosimizga ham alohida e'tibor ega. Xalqimizning ajoyib xilma-xil va bir-biridan go'zal mahalliy musiqiy an'analaridan, mumtoz musiqaning yuksak durdonalaridan, maqom namunalaridan ma'naviy zavq olish, ruhiy bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ldilar. Bu an'analar esa uzoq davrlar mabaynida shakllangan bo'lib, ular xalqimizning turli sharoitlaridagi turmush tarzi, mehnat mashg'ulotlari, urf-odat va bayramlari kabi jarayonlar bilan bog'liqidir. Milliy musiqa ta'limining asosiy maqsadi barkamol avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qiladigan, bilimli, sog'lom yoshlarni tarbiyalash va ularni Ona Vatanga bo'lgan mehr-u muhabbatini oshirishdan iborat. Shu bilan birgalikda, har bir o'quvchining musiqiy iqtidorini, san'atga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshirish musiqa ta'limining asosiy vazifasidir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda ta'lim mazmuni va o'qitish uslubiyotini takomillashtirishda musiqa ta'limining milliy, an'anaviy va hozirgi zamон yutuqlariga hamda ilg'or tajribalarga ijodiy tayanish maqsadga muvofiqdir. Musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'yan madaniyatlari, keng dunyoqarashli, mohir ijrochi, musiqa san'atiga kasbiy qiziqishda bo'luvchi, kishilar bilan ishlay oladigan, yaxshi tashkilotchi, san'atning hamma turlari, ularning umumiy ta'rifi va tarixi bilan tanish bo'lishi, xalq ta'limi sohasida musiqiy cholg'u asbobi, dirijyorlik, musiqa tarixi, qo'shiq kuylash sirlari, vokal xor malakalari haqida darslar bera oladigan bilimli, tajribali, xonanda, dirijyor, jo'rnavozchi, bir

so‘z bilan aytganda musiqa nazariyotchisi va musiqa asboblarida mohir ijrochi bo‘lmog‘i lozim. Dars ishlanmalarini va xujjalarni yozuvchi, musiqa madaniyati darslarini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil eta olishi zarur. Tabiiyki, odob-axloq o‘qituvchi shaxsning eng muhim fazilatini sanaladi.

Musiqa o‘qituvchisi ham odobli, tarbiyali, madaniyatli va o‘quvchilarga nisbatan mehribon murabbiy bo‘lishi, jamiyatning ilg‘or shaxsi bo‘lishga intilishi, davr talabini tushunish, san’atimiz va madaniyatimiz istiqbolini his eta olishi, yuksak musiqa madaniyatiga ega faol targ‘ibotchi bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, musiqa o‘qituvchisi mutaxassisligini egallagan har bir shaxs musiqa o‘qituvchisi bo‘lish bilan birga “San’atkor” hamdir. Musiqa o‘qituvchisi o‘z fanini jon dildan sevishi, bolajonlarni hurmat qilib, mehr bilan musiqa darslarini olib borishi o‘z faoliyatida pedagogika, psixologiya, musiqa uslubiyoti etika va nafosat tarbiyasini uyg‘unlashtira olishi milliy musiqamiz qonuniyatlarini, madaniy merosimizni, yosh avlod ongiga to‘g‘ri va sodda qilib yetkaza olishi musiqa o‘qituvchisi oldiga qo‘yilgan vazifalar jumlasiga kiradi. Hozirgi zamon musiqa o‘qituvchisi pedagogik muloqat ustasi bo‘lishi, har qanday vaziyatda ham pedagogik ta’sir usullaridan unumli foydalanish qobiliyatga ega bo‘lmog‘i lozim. Shuningdek, musiqa o‘qituvchisi ilmiy tafakkur egasi, ilg‘or tajribalar shaydosi, izlanuvchan - ijodkor bo‘lib, musiqa o‘qitishning yangi shakl va usullarini kashf etishga intiluvchan bo‘lishi talab etiladi.

**Muhokamalar va natijalar.** Bolalarning musiqiy bilimlar tizimida musiqa tinglashning ahamiyatini baholash murakkabdir. Musiqa tinglamay madaniyatni o‘rgatish, dunyo musiqa san’ati durdonalari bilan tanishtirish, musiqaning ifoda vositalarini o‘rgatish, yuqori musiqa san’ati asarlariga nisbatan muhabbat uyg‘otish mumkin emas. Bu sifatlarni shakllantirishda musiqa tinglash jarayonining juda katta o‘rni bor. Musiqa tinglash jarayonida, bolalar turli bastakor va kompozitorlar asarlaridan namunalar tinglaydilar. Shostakovichning ta’biri bilan aytganda, “Musiqani sevish uchun, avvalambor, uni tinglash kerak...” Vatan, do‘slik haqidagi, mehnat va boshqa jismoni hamda aqliy faoliyatlar mavzusidagi asarlarni tinglash, bolalarga ijobiy ta’sir qiladi. Bola tinglangan musiqa yoki san’at asari haqida birorta savol bermasa, unda biror hissiyot vujudga kelmasa, shaxsiy hissiyot va munosabat bilan bog‘lanmagan xabar tarzidagi aloqagini paydo bo‘lsa, demak vazifa bajarilmagan, maqsadga erishilmagan hisoblanadi.

V.I.Petrushin “Musiqiylar psixologiya” asarida musiqaning psixologik xususiyatlari haqida to‘xtalar ekan, musiqa idrokiga ham to‘xtalib o‘tadi. Uning fikricha, tinglovchi biror bir musiqiy asarni tinglaganda, uning muallifi va kuyning nomini avval eshitgan bo‘lsa darhol aniqlay oladi. Har bir musiqiy asar insonning hayoti davomida orttirgan taassurotlari, kechinmalarini uyg‘otadi. Lekin tinglovchi musiqiy asarni tinglaganda, o‘zining emas, balki kompozitorning kayfiyati, his-tuyg‘ularini musiqaning ifoda vositalari orqali anglashi kerak. V.I.Petrushinning fikriga ko‘ra, musiqiy idrokni shakllantirish bu musiqiy eshitish qobiliyatini shakllantirishga bog‘liq ekan. Lekin u yana shuni ta’kidlaydiki, kishining tarbiya ko‘rgan muhiti, bilimi, yoshi ham uni musiqiy idrokiga sezilarli ta’sir ko‘rsatar ekan. Har bir kishining musiqiy didi uning turar joyi, yashash muhiti va uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq, deb hisoblaydi, V.Petrushin. Olim yana “... musiqiy idrok tafakkurning boshlang‘ich bosqichi...” - deydi. Demak, olimning fikrini tahlil qilar ekanmiz, shunday xulosa chiqarishimiz mumkin:

1. Musiqiy idrok eshitish sevgisi bilan bog‘liqdir.
2. Musiqani idrok etganda avval egallangan taassurotlar gavdalanan ekan.
3. Kishilarning musiqiy didi ular yashayotgan ijtimoiy muhit bilan bevosita bog‘liq ekan.
4. Musiqiy idrok taffakur jarayonining ilk bosqichlaridan biridir.

N.A.Vetlugina o‘zining “Musiqani idrok etish” nazariyasida musiqaning nihoyatda ta’sirchanligi va uni inson ongi orqali idrok etish malakalarini shakllantirishning boshlang‘ich bosqichlari haqida bayon etadi. Avvalambor, N.Vetlugina bolalarni musiqiy asarlarni idrok etishi muammosi bilan ko‘p shug‘ullangan olimadir. U musiqa tinglashning ahamiyati haqida gapirar ekan, ijro etishdan ko‘ra musiqa tinglash kishilar ruhiyatiga ko‘proq ta’sir qilishiga urg‘u beradi. Shuningdek, N.A.Vetlugina musiqa tinglash jarayonining ham o‘z metodikasi bo‘lishi haqida gapiradi.

Maktabda o‘quvchilarga har xil mazmundagi qo‘shiqlarni tinglataj ekanmiz, tinglash jarayonini tashkil etish va uni samarali usullarini ishlab chiqish joizdir. N.Vetuginanining ta’biriga ko‘ra, musiqa kishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi: kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga ta’sir qilib, unda har xil hislarni uyg‘otadi, turlicha kayfiyotlarni hosil qiladi. Qo‘shiqning matni, g‘oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta’sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi.

Musiqa madaniyati mashg‘ulotlarlarida musiqa tinglashni ahamiyatini baholash murakkabdir. Bolalarga musiqa tinglash madaniyatini o‘rgatish, ularni dunyo musiqa san’ati durdonalari bilan tanishtirish, musiqaning o‘ta boy ifoda vositalarini o‘rgatish, yuqori badiiy saviyadagi musiqa san’ati asarlariga nisbatan muhabbat uyg‘otishda musiqa tinglash jarayonining o‘rni juda katta.

**Xulosa.** Demak, musiqiy ta’lim tizimida, xususan, musiqa tinglash ta’lim mazmunining asosini tashkil qiladi. Bolalar asar tinglash jarayonida yakkanavoz va jo‘rnavorzlikni ajrata bilishlari, ansambl va orkestr

ijrosini farqlay bilishlari, sozlar va cholg‘ular tembrini ajrata olishlari, o‘zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglay olishni o‘rganishlari zarur. Bolalarda musiqa tinglash orqali musiqa, uning obrazlari vositasida hayotni, borliqni estetik idrok etish, anglash va bilish qobiliyati rivojlanib boradi, musiqiy asarlarni badiiy-g‘oyaviy jihatdan mantiqan to‘g‘ri idrok etishga, musiqiy did va tafakkurlarini rivojlantirishga, musiqiy asarni qadrlashga, uni to‘g‘ri baholashga qulay sharoit yaratiladi.

### **Adabiyotlar**

1. Норова Шоира Умрзаковна ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ В ДУХЕ УВАЖЕНИЯ К НАЦИОНАЛЬНЫМ ЦЕННОСТИЯМ ПОСРЕДСТВОМ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ // Наука, техника и образование. 2021. №2-2 (77).
2. Shoira Umrzoqovna Norova MUSIQA MADANIYATI DARSLARINING XUSUSIYATI VA TUZILISHI // Scientific progress. 2021. №5.
3. Norova Shoira Umurzoqovna. (2021). METHODS OF PERFORMANCE BY MUSICAL INSTRUMENTS. *European Scholar Journal*, 2(9), 55-56.
4. Норова Шоира Умрзаковна, Хазратова Камола Нусратиллаевна РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ В ПОДГОТОВКЕ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ // Academy. 2021. №2 (65).
5. Норова Шоира Умрзаковна ВЗАИМОЗАВИСИМОСТЬ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЛИЧНОСТЬ СТУДЕНТА // Вестник науки и образования. 2020. №21-2 (99).